

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

LEGAL ESSENCE OF CRIMES AGAINST CONSTITUTIONAL RIGHTS AND FREEDOMS OF CITIZENS

Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi

3rd year student of the Faculty of Law
Karakalpak State University named after Berdakh

Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich

Karakalpak State University named after Berdakh
PhD in Law, Acting Associate Professor

Abstract. This article reflects the concept of human rights and freedoms, their enshrinement in international legal documents, crimes against human rights, and the measures of responsibility applied to them. The recognition of human rights as the highest value and the role of the legislation of the Republic of Uzbekistan in ensuring human rights, including the responsibility of state bodies, will be studied. The legal acts of other states on the protection of human rights will also be considered.

Keywords: human rights, declaration, constitutional right, restriction of rights, personal secret, democratic state, equality.

FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI

Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: aynurasarsenbaeva.101@gmail.com

Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fanlari falsafa doktori
E-mail: t.sultanbay@karsu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi, ularning xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlanganligi va inson huquqlarini buzish bo'yicha jinoyatlar, ularga qo'llaniladigan javobgarlik choralari aks ettiriladi. Inson huquqlarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni va shu qatorda davlat organlarining mas'uliyati o'rganiladi. Shuningdek inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xorijiy davlatlar huquqiy hujjatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, deklaratsiya, konstitutsiyaviy huquq, huquqlarni cheklash, shaxsiy sir, demokratik davlat, teng huquqlilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N36>

Hozirgi vaqtda inson huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida qaralib, uni himoya qilish har bir davlatning asosiy vazifasi sifatida tan olinadi. Inson huquqlarining himoya

qilinishi bu davlatning mustahkamligi va siyosiy rivojlanish mezoni sifatida e'tirof etiladi. Inson huquqlariga qarshi jinoyatlarning xavfli ekanligini isbotlovchi yana bir sabablardan biri – bu jinoyatlar faqat bitta insonga emas, balki butun jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatining himoya qilinishi mustahkamlangan bo'lib, bu yurtimizning inson huquqlari asosida boshqariladigan demokratik davlatlardan biri ekanligini isbotlaydi.

Hozirda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faqat davlatlarga emas, balki Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNICEF, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar faol ishtirok etib kelmoqda va inson huquqlarini himoya qilish, uni yanada yuksaltirish bo'yicha xalqaro deklaratsiyalar qabul qilinmoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali 1948-yili 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" barcha mamlakatlar uchun inson huquqlarini himoya qilish borasida asos bo'lib xizmat qiladi. Bu deklaratsiyada har bir inson millati, tili, tanasining rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar barcha huquq va erkinlikka ega bo'lishi zarurligi va asosiy huquqlari bo'lgan shaxsiy daxlsizlik va turar joyga ega bo'lish, erkin harakatlanish kabi huquqlari belgilangan[1]. Qo'shimcha tariqasida BMTning inson huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachilari – boshqa davlatlardagi inson huquqlari bo'yicha vaziyatlarni o'rganish va shu haqida ma'ruzalar yuritadigan ekspertlari borligini ham aytsak arziydi.

O'zbekiston Respublikasi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ni ratifikatsiya qilgan va Konstitutsiyamizni yaratishda ushbu deklaratsiya qoidalari inobatga olingan. Masalan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bo'limi shaxsning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik huquqlarini o'z ichiga olgan. Buni biz alohida ta'kidlab o'tishimizning asosiy sababi davlatimizda Konstitutsiya asosiy qomusimiz sanalib, boshqa hujjatlarga asos qilib qo'llanishidir. Ya'ni bundan kelib chiqadiki, yurtimizdagi olib borilayotgan barcha islohotlar va qonunlar inson huquqlarini himoya qilish va ularni mustahkamlash maqsadida olib boriladi[2].

Inson huquq va erkinliklarining xalqaro deklaratsiya va milliy qonunchiligimizda mustahkamlanib qo'yilishiga qaramay, ularning buzilishi bilan bog'liq holatlar, afsuski, jamiyatimizda haligacha uchramoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining VII bobi "Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bo'lib, u fuqarolarning huquqlarini buzish, uning huquqiy oqibatlari va ularga qo'llaniladigan javobgarlikni o'z ichiga oladi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod To'xtashev Konstitutsiyamizda inson manfaati har narsadan ustun qo'yilishi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanganligini aytib o'tgan edi. Jinoyat Kodeksi 141-moddasiga binoan, fuqarolarning teng huquqligini buzish, ya'ni fuqarolarning millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki mavqeyiga va shuningdek e'tiqodiga qarab fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud ularga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish jinoyat sifatida qaralishi aytilgan. Shuningdek bu jinoyatni sodir etish bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi nazarda tutiladi. Bu jinoiy harakat uchun ma'muriy javobgarlikning yo'qligi va sodir etilishi bilan jinoyat hisoblanishi – uning og'ir jinoyat ekanligidan dalolat beradi. Bu jinoyatning subyekti sifatida har qanday 16 yoshli aqli raso

jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda bu jinoyat mansabdor shaxslar tarafidan ham sodir etilishi mumkin. Masalan ishga olish jarayonida ijtimoiy kelib chiqishiga qarab afzalliklar berilishi yoki cheklash kabi harakatlar uchraydi. Bunday hollarda jazo tayinlash mansab vakilligini suiste'mol qilish jinoyati bilan birgalikda kvallifikatsiya qilinadi.

Agar ushbu jinoyat zo'rlik ishlatish, ya'ni kaltaklash, badanga yengil yoki og'ir shikast yetkazish orqali sodir etilsa — uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi[3].

Endi yuqoridagi moddadagi fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash, bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish atamaları ma'nosiga chuqurroq nazar tashlasak:

Bu jinoyat tarixiy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, biologik yoki tabiiy belgilariga qarab unga qonuniy huquq yoki manfaatlarini bajarish imkoniyatini taqdim etmaslik yoki ularni amalga oshirishga to'sqinlik qilish tarzida to'g'ri qasd shaklida sodir etilishida ko'rinadi[4, 165].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga muvofiq, har kim o'z shaxsiy va oilaviy siriga ega bo'lish huquqiga ega hisoblanadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga binoan jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma'lumotlar maxfiy axborot toifasiga kirishi va jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlangan[5].

Agar kimdir ushbu ma'lumotlarni shaxsning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'sa yoki tarqatish bilan shug'ullansa, Jinoyat Kodeksi 141(1)-moddasiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanashi nazarda tutilgan. Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy ma'lumotlarni yig'ish – bu muayyan shaxsni kuzatish, suratga olish yoki surishtirish orqali va o'sha ma'lumotlarga ega shaxs tarafidan egasining roziligisiz ommaviy axborot vositalarida chop etish yoxud internet orqali oshkor qilish yo'li bilan sodir etiladi.

Bu jinoyatning o'ziga xos belgisi sifatida ma'muriy preyditsiyasi nazarda tutiladi. Misol uchun bu harakat birinchi marta sodir etilsa, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi 46-moddasiga muvofiq tartibga solinadi. Unga ko'ra:

Tibbiy yoki tijorat sirlarni, yozishma xabarlar va xabarlar, bank operatsiyalar, notarial harakatlar va jamiyat sirlari, shuningdek fuqaroga, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga moddiy va ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi aytilgan[6]. Agar ushbu holat bir yil ichida yana takrorlansa, jinoiy harakat sifatida tan olinadi va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Agar 141 (1)-modda 1-bo'limida ko'rsatilgan harakatlar:

- a)og'ir oqibatlarga olib kelsa;
- b)g'arazli niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- c)xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Huquqshunos olim M.X.Rustamboyev shuni aytadiki: “Og‘ir oqibatlar ostida jabrlanuvchiga jiddiy ma’naviy zarar yetkazilishi, oilaning ajralishi, uning sog‘lig‘ining buzilishini tushunish lozim. Oqibatda har bir holatda sud tomonidan baholanishi lozim”.

Hozirgi vaqtda inson huquqlarining buzilishini kamaytirish va ularning oldini olish bo‘yicha yurtimizda islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2020-yili 22-avgustda “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda inson huquqlari xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish va inson huquqlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlik aloqalarini faollashtirish kabi dolzarb muammolarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek ushu hujjatda inson huquqlarini himoya qilishda xizmat qilgan shaxslar uchun “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko‘krak nishonini ta‘sis etish, inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumini o‘tkazish kabi maqsadlar ham belgilab o‘tilgan edi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, bu Farmonda inson huquqlari sohasidagi taraqqiyotlar, ya‘ni sudlarda ishlarni ko‘rib chiqishda adolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash uchun “Elektron odil sudlov” tizimi joriy etilganligi, fuqarolarga bepul huquqiy maslahatlar xizmatini ko‘rsatuvchi “Madad” nodavlat notijorat tashkilotini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jasliq qo‘rg‘onida joylashgan ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasining yopilishi haqida ham aytib o‘tilgan[7].

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari sifatida O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, adliya organlari, advokatura, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari faoliyat olib bormoqda. Asosan bu mexanizmlar ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari samaraligi haqida alohida aytib o‘tish lozim, sababi bu mexanizm davlat organlari va aholi o‘rtasida ochiqdan-ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali inson huquqlarining buzilishini ma‘lum darajada kamaytirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Inson huquqlari va erkinliklari barcha davlat normativ huquqiy hujjatlarida mustahkamlanib qo‘yilishiga qaramay, ularning tartibga solinishi, himoya qilinish usuli va qaysi davlat organlari tomonidan himoya qilinishi har bir davlatda turlicha aks etadi. Xususan Germaniya Federativ Respublikasida ham inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida belgilangan bo‘lib, shaxsning qadr-qimmatini, tenglik va erkinlikka qarshi qaratilgan har qanday harakat jinoyat sifatida qaraladi. Bu jinoiy harakatlar Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksi (Strafgesetzbuch) bilan tartibga solinadi va jazo tayinlanadi. Jazo tayinlashda real zarar, ijtimoiy xavflilik darajasining hisobga olinishi Germaniya Federativ Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining o‘xshash taraflaridir. Germaniyada mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan inson huquqlarini buzish harakati uchun javobgarlik choralari kuchaytirilganligini ham aytib o‘tish lozim[8].

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini himoya qilish xalqaro huquqdagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Inson huquqlarining himoya qilinishi faqat xalqaro hujjatlar yoki normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanib qolmasdan, shu turdagi jinoyatlar bo‘yicha profilaktik ishlar ham olib borilishi lozim. Bundan tashqari jinoyat kodeksidagi sanksiyalar

miqdorlarini oshirish va fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish ushbu jinoyatlarning kamayishiga ma'lum darajada hissa qo'shishi mumkin. Bunda huquqiy ongni va madaniyatni oshirish haqida aytishimning sabablaridan biri, agar inson o'z huquqlarini va ularni qanday usullar orqali himoya qilish, ya'ni huquqlari buzilgan sharoitda qayerga murojaat qilishni bilsa, bu jinoyatlarning oldini olishga katta qadam demakdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.042023 <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 22.09.1994 <https://lex.uz/mact/-111453>
4. Rustamboev.M.X O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga sharx. Maxsus qism. - Toshkent: "Adolat" 2016 -960b
5. " Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2002-yil 12-dekabr,439-II-son <https://lex.uz/acts/-52268>
6. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi" 22.09.1994 <https://lex.uz/acts/-97664>
7. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 22.06.2020 yildagi PF-6012-son <https://lex.uz/uz/docs/-4872355>
8. German Criminal Code https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).